

### LAVANDANING XUSUSIYATLARI.

**Nizamova Robiyaxon**

**Shodiqulova Durдона**

DTPI Biologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14494027>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Lavanda o'simligining yetishtirilishi, xalq xo'jaligidagi ahamiyati va dorivorlik xususiyatlari haqida aytib o'tilgan. Lavanda o'simligi suvsizlikka chidamli bo'lib, uning barcha qismlari foydali xususiyatga ega. Ayniqsa efir moyi parfumeriya, kosmetika, farmaseftika va xalq tabobatida qo'llaniladi. Uning ko'p tarmoqli qo'llanilishi xalq ho'jaligida daromad manbai va iqtisodiy resurs sifatida katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** o'simlik ekstaktlari, efir moyi, antikonvulsant, labguldoshlar, tanin, lavandiol, spirtli efir, nonanal, allergik, stress.

### СВОЙСТВА ЛАВАНДЫ.

**Аннотация.** В этой статье говорится о выращивании растения лаванды, его значении в народном хозяйстве и лечебных свойствах. Растение лаванды устойчиво к обезвоживанию, и все его части обладают полезными свойствами. Особенно эфирное масло используется в парфюмерии, косметике, фармацевтике и народной медицине. Его междисциплинарное применение имеет большое значение как источник дохода и экономический ресурс в национальной экономике.

**Ключевые слова:** экстракты растений, эфирное масло, противосудорожное средство, шиповник, танин, лавандовое масло, спиртовой эфир, nonanal, аллергия, стресс.

### PROPERTIES OF LAVENDER.

**Abstract.** In the thesis, it is mentioned about the cultivation of lavender plant, its importance in the national economy, and its medicinal properties. The lavender plant is resistant to dehydration, and all its parts have useful properties. Especially essential oil is used in perfumery, cosmetics, pharmaceuticals and folk medicine. Its multidisciplinary application is of great importance as a source of income and economic resource in the national economy.

**Key words:** plant extracts, essential oil, anticonvulsant, rose hips, tannin, lavender oil, alcohol ether, nonanal, allergic, stress.

**Kirish.** Lavanda lotincha Lavandula deb ataladi. Lavanda labguldoshlar oilasiga mansub o'simlik bo'lib, buta yoki chala butalar turkumiga kiradi. Taxminan 47 turni o'z ichiga oladi.

Bulardan 25 turi dengiz sohillarida uchraydi.

Lavanda butasi kurtaklar to'plamidan iborat bo'lib, diametri 1m yoki undan ham baland bo'lishi mumkin.

Balandligi 50-70 sm bo'ladi. Lavandaning vatani O'rta yer dengizi Ispaniya va Fransiya qirg'og'i bo'lib, u yerda toshli yonbag'irlarda yovvoyi o'sadi [1].



**1-rasm. Lavanda gulining tuzilishi.**

Lavandula angustifoliyaning uzunligi 1,3m gacha yetishi mumkin. Lavanda dorivor achchiq o'simlik bo'lib, poyasi tog'ri, barglari chiziqli, butun, chetlari biroz egilgan. Yoz oylarida kuchli hushbo'y hid chiqaradigan gullardan iborat, ko'k binafsha rangda gullaydi.

Mevasi qo'shaloq elliptik shakldagi sariq jigarrang 4ta yong'oqchalik mevedan iborat.

Lavanda mevalari odatda quruq va kichik bo'lib, uning ichida ko'plab urug'lar mavjud.

Mevalari pishganda osonlikcha tarqaydi va yangi o'simliklar hosil qilish uchun yangi joylarda o'sadi. Lavanda yorug'sevar, issiqsevar o'simlik hisoblanadi. U o'zining qurg'oqchilik hamda -3 darajagacha chidamliligi bilan ham boshqa ko'pgina o'simliklardan farq qiladi.

Lavanda o'simligi quyosh yaxshi tushadigan va namni yaxshi o'tkazadigan tuproqlarda o'stiriladi. Lavanda o'simligi urug'idan ham ko'paytiriladi. Urug'lar kech kuzda dalaga ekiladi.

Qishlash davrida rozetka holida o'taydi. Agarda urug'lar bahorda ekilsa, bunda urug'larni maxsus joylarda va salqin yerda saqlanadi.

Bahorda urug'lar aprelning boshlarida egat oraligida 70sm qilib ekiladi. 1gektarda 4-4,5 kg urug' sarflanadi. Ekishdan so'ng sug'oriladi. Urug'lar 10-12kunda unib chiqadi. 2-3ta barg chiqarganidan so'ng qator ortalarida traktorda ishlov beriladi [2]. Bundan tashqari yer yumshatilib turiladi.

Hozirda Lavanda Rossiya, Fransiya davlatlarida eng ko'p yetishtiriladi. Rossiyaning Lavanda maydonlari gullashi mintaqaning iqlim sharoitiga va o'simlik turiga bog'liq. Lavanda o'simligi hozirda Samarqand viloyatining 2ta tumanida yetishtiriladi.

Just qishlog'ining bir yarim ming gektar maydonida bir yarim ming dona Lavanda ko'chati ekilgan. Samarqand tumanining Xishrav qishlog'iga ham ekilib foydasi ko'rilmogda.



### 2-rasm. Lavanda o'simligining umumiy tuzilishi.

Lavanda gullari tarkibida 1,2-2,3% ko'proq efir moyi bo'ladi. Tabiiy mahsulot tarkibida 200dan ortiq komponentlar mavjud. Vitaminlar A, E, C, B, PP guruhlari. Kislotalar: valerian, neylon, moy, sirkalar mavjud. Bundan tashqari efir tarkibiga taninlar, achchiq, qatronlar, spirtli efir, lavandiol, nonanal, bornionlar kiradi. Lavanda o'simligi efir moyi parfimeriya, kasmetika, sovun tayyorlash va tibbiyotda qo'llaniladi. Xalq tabobatida Lavanda yog'i kuyish va ko'karishlarni davolashda qo'llaniladi.

O'simlik yerustki qismi organizmga tinchlantiruvchi, stressga qarshi, ruhiy holatni yaxshilovchi ta'sirga ega. Lavanda gullari diuretik ,antikovlundsant va tinchlantiruvchi xususiyatga , moyi esa antiseptik xususiyatga tufayli stressni kamaytiradi, uyquni yaxshilaydi va terini parvarish qilishda samarali vositasifatida ishlatiladi. Bundan tashqari lavanda moyi epidermal hujayralarni to'liq qayta tiklash xususiyati bilan faol yaralarni davolashda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chandiqlarni kichraytirish va bo'rtmalarni so'rilishida yordam beradi [3].Tarkibida taninlar bo'lganligi sababli diyareya ,ayniqsa fermentatsiya bilan sodir bo'lgan diareyaga qarshi ta'sirga ega. Lavanda gullari ham xoleretik vosita bo'lishi mumkin. Spirtli ichimliklar bilan suyultirilgan lavanda moyi migren paytida ,kuchli yurak urishi bilan asabiylashish kuchaygan davrda ,revmatizmning o'tkir hurujida ichiladi. Lavanda gripga ham foydali ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek uning tarkibida vitamin va minerallarni ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa.** Lavanda o'simligi suvsizlikka chidamli bo'lib, uning barcha qismlari foydali xususiyatga ega. Ayniqsa efir moyi parfumeriya, kosmetika, farmaseftika va xalq tabobatida qo'llaniladi. Shu sababdan uni yetishtirishni ommalashtirishimiz va ko'paytirishimiz kerak.

Lavanda nafaqat dorivor xususiyatlari tufayli balki manzarali dekorativ o'simlik sifatida va estetik zavq olish maqsadida ham ekib o'stiriladi. Uning ko'p tarmoqli qo'llanilishi xalq ho'jaligida daromad manbai va iqtisodiy resurs sifatida katta ahamiyatga ega.

## REFERENCES

1. Baxromova B. Z., Ernazarova M. S. Dorivor lavanda o'simligi haqida umumiy ma'lumot va uning tibbiyotda qo'llanilishi //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 88-95.
2. Qizi R. S. O. Lavanda (Lavandula) o'simligining xalq xo'jaligidagi ahamiyati va yetishtirish texnologiyasi //Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. SamTSAU Conference 1. – C. 734-738.
3. Maxamadovich K. R. et al. Lavanda o'simlik tularini xalq tabobatida yetishtirish texnologiyasi //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 30. – C. 428-430.